

HABIB SA'DULLA SHE'RIYATIDA TABIAT, VATAN VA INSON RUHIYATINING BADIY TALQINI

Ermanbetova Shohsanam Bozorboyevna

University of Business and Science

Til va adabiyot ta'limi kafedrası

katta o'qituvchisi,

Gmail: shohsanamermanbetova49@gmail.com

Telefon: +998939442273

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Habib Sa'dulla ijodi tahlil etiladi. Shoir she'riyatida tabiat manzaralari, Vatan timsoli va inson ruhiyatining o'zaro uyg'unligi, ularning badiiy talqini yoritilgan. Habib Sa'dulla lirik qahramonining kechinmalari, tabiatga bo'lgan estetik munosabati, Vatanni ulug'lash ruhidagi she'rlari misolida shoirning poetik mahorati ochib beriladi. "Yomg'irdan so'ng", "Ayollar", "Nido keldi", "Onaizor", "Bizning Namangonda", "Sog'inib keldim", "Namangon qizlari" kabi asarlarda inson qalbi, sadoqat, muhabbat, ona yurtga mehr, do'stlik va fidoyilik g'oyalari tahlil qilinadi. Shoirning poetik uslubi, obrazlar tizimi va badiiy til xususiyatlari orqali uning lirikasida inson va tabiat birligi, hayotiy falsafa va ruhiy holatlarning badiiy aks etishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Habib Sa'dulla, lirika, tabiat manzaralari, Vatan, inson ruhiyati, muhabbat, sadoqat, badiiy obraz, poetik ifoda, lirik qahramon.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОТРАЖЕНИЕ ПРИРОДЫ, РОДИНЫ И ДУХОВНОГО МИРА ЧЕЛОВЕКА В ПОЭЗИИ ХАБИБА САИДУЛЛЫ

Эрманбетова Шохсанам Бозорбоевна

Преподаватель кафедры языкового и литературного

Образования университета бизнеса и науки

Электронная почта: shohsanamermanbetova49@gmail.com

Телефон: +998 (93) 944-22-73

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется творчество одного из видных представителей современной узбекской литературы — Хабиба Саидуллы. В его поэзии особое внимание уделяется гармонии между природой, образом Родины и внутренним духовным состоянием человека. На примере

стихотворений «После дождя», «Женщины», «Пришел призыв», «Мать», «В нашем Намангане», «Я соскучился», «Девушки Намангана» раскрывается поэтическое мастерство автора, его отношение к природе, любви и верности, а также глубокая привязанность к родной земле. Через систему образов и поэтический язык показано единство человека и природы, философское и эмоциональное осмысление жизни в его лирике.

Ключевые слова: Хабиб Саидулла, лирика, пейзаж, Родина, духовный мир человека, любовь, верность, художественный образ, поэтическое выражение, лирический герой.

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF NATURE, HOMELAND, AND THE HUMAN SPIRIT IN HABIB SA'DULLA'S POETRY

Ermanbetova Shohsanam Bozorboyevna

University of Business and Science

Teacher of the Department of Language
and Literature Education,

Gmail: shohsanamermanbetova49@gmail.com

Phone: +998939442273

ABSTRACT

This article analyzes the works of Habib Sa'dulla, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. His poetry reveals the harmony between nature, the image of the homeland, and the human spirit. Through an analysis of poems such as "After the Rain," "Women," "The Call Has Come," "Mother," "In Our Namangan," "I Came with Longing," and "Girls of Namangan," the author's poetic mastery, emotional depth, and devotion to the native land are explored. The study highlights the unity of man and nature, the philosophical perception of life, and the expression of love, loyalty, and patriotism reflected in Sa'dulla's lyrical works.

Keywords: Habib Sa'dulla, lyric poetry, nature imagery, homeland, human spirit, love, loyalty, artistic image, poetic expression, lyrical hero.

KIRISH

Shoir she'rlarida tabiat manzaralari Vatan qiyofasini to'ldiruvchi bir obyekt, detalgina emas. Tabiat – shoir nazdida Vatanning bir bo'lagi, his-tuyg'uga boy kechinmalar va inson kuch-qudratining asosi, nihoyat, doimo yangilanib, barq urib turuvchi hayot timsoli. Habib Sa'dullaning lirik qahramoni tabiat og'ushiga singib, uning farahli sururi qo'ynida ko'rinmay ketmaydi, bugungi hayot oqimi zarblarini

tuyish va voqea-hodisalar jarayonini estetik baholashda tabiat odil haqiqat bo'lib gavdalanadi. Shoirning bolalik xotiralarida ham tabiat xossalari o'zining yorqin bo'yoqlari, chizgilari bilan davr nafasi va kechinmalarini yaratishda bevosita ishtirok etadi. Xususan, tabiat manzaralari lirik qahramonning qalb manzaralarini shunchaki aks ettirmaydi, balki hayot, voqelik ta'sirida lirik qahramon ko'nglida kechgan kechinma va hissiyotlar, fikrlar silsilasi bilan uyg'unlik kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shoirning "Yomg'irdan so'ng" nomli she'rida tabiatning go'zal, jonli obrazi ko'z oldimizga keladi. Shoirning yomg'irdan so'ng tabiatga suqlanib qarashi ifodalanadi. Ma'lumki, yomg'ir yog'ib tingandan keyin borliq musaffo, tiniq, yoqimli tusga kiradi. She'rda har bir poetik obrazning jonli, yorqin manzaralari chizilgan. Yomg'ir tomchilarini "inju tomchilar", majnuntollarni "sochin yuvgan kelinchak", majnuntol novdalarini "ko'm-ko'k kokillari" kabi go'zal tashbehlar bilan bezaydi:

Yomg'irdan so'ng tabiatga boqdim suqli, lol,

Yaproqlarda inib qolmish inju tomchilar.

Majnuntollar sochin yuvgan kelinchak misol

Yoyib ko'm-ko'k kokillarin, suvin silqitar.¹

She'rning keyingi qatorida "adl teraklar", "dur qatralar", "yuraklar", "Quyosh" obrazlari keltiriladi. Xuddi "pahlavonday adl teraklar"ning qad ko'tarib turishi, suv tomchilarining "dur-qatralari" kabi gullar ostida tovlanib go'zal manzara yaratishi, bunday betakror chiroy, go'zallikning paydo bo'lishiga Quyoshning saxovati sabab ekanligi va yuraklarning zavq-shavqqa to'lishi ifodalanadi:

Suvdan chiqqan pahlavonday adl teraklar,

Dur-qatralar tovlanadi gullar qatida.

Sho'x boladay zavqqa to'lib ketar yuraklar

Yomg'irdan so'ng ilk quyoshning saxovatidan.²

Ma'lumki, adabiyotda ijodkor his-tuyg'ulari, uning ruhiyati bilan bog'lik voqea-hodisalar ifodasi faqat **so'z orqaligina** yuzaga chiqadi Ijodkor so'z orqali hayotni badiiylashtirar ekan, inson ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi obrazlarni o'ylab topadi. Chunki shoirning go'zal, samimiy tuyg'ulari obrazlar vositasida ta'sirchan holda aks etadi va o'quvchiga estetik ta'sirini o'tkazadi:

Visol — Sizsiz, Muhabbat — Siz

Vatan ham, e'tiqod ham Siz,

Vafo ham — Siz, Baqo ham — Siz,

Lazizsiz barcha ne'matdan.³

¹ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар. I жилд -Т: Шарқ, 2002. –Б.82.

² Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар.1- жилд. —Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.82.

³ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар.2- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.106.

Ushbu she'rni shoir "Ayollar" deb nomlagan. Ayol – visol, muhabbat, Vatan, e'tiqod, vafo, baqo timsoli sifatida gavdalantirilyapti. Ayolga berilgan ta'rifning cheki yo'q. U dunyodagi barcha ne'matdan "laziz" etib ifodalangan. Shoirning qalbidagi ko'tarinkilik ayolga bag'ishlangan mana shu to'rt qatorlik qasidada inson yaratilishiga, uning jamiyatda o'sib-ulg'ayishiga sababchi bo'lgan ayolni ko'klarga ko'taradi. O'quvchida ayolga bo'lgan muhabbat, hurmat tuyg'ularini oshiradi.

Habib Sa'dulla turli janrlarda qalam tebratdi. Ayniqsa uning marsiya janridagi she'rlarida ham shoir uslubining individual qirralari ko'zga tashlanadi. Shoirning "Nido keldi" nomli marsiyasi andijonlik ijodkor va shoirning do'sti Azimiyga bag'ishlanadi;

Bu tongda Andijondan larzakor bir shum sado keldi,
Sadokim tinglagan chog'da ko'ngillardan nido keldi.
Falak beboshligi bizni Azimiydan judo etmish,
Necha do'st ko'zda selobi, bo'lib do'stdan judo keldi.⁴

Ma'lumki, folklordagi o'lim-yo'qotish, ayriliqni ifodalovchi yig'i-yo'qlovlar asosida marsiya janri paydo bo'lgan. Bu esa Sharq mumtoz adabiyotida firoqiya, marsiya, yodnoma, G'arbda elegiya, epitafiya kabi lirik janrlarning yuzaga kelishiga xizmat qilgan. Shayh Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a" asarida marsiyani quyidagicha ifodalagan: "O'lgan kishini zikr qilsalar, marsiya derlar"⁵. Inson vafoti munosabati bilan ayriliqni ifodalovchi qayg'uli she'rlar marsiyadir. Shoirning eng yaqin do'sti, ijodiy hamkorining vafoti haqidagi kutilmagan shum xabar uning qalbini vayron qildi. Endi uning boshiga do'stdan ayrilish azobi, judolik qismati yozildi. Shoir marsiyada uning hamisha chin do'st bo'lganligini, sadoqatli ekanligini yodga oladi. Lekin "berahm taqdir" esa uning umriga vafo qilmaganidan nola-yu fig'on chekadi;

Yoshi oltmishga etmasdan umr o'z jabdug'in tortmish,
Yuzin ochmay bugun charxi samo motamsaro keldi.
Azimiykim hamisha davralarning sarvari erdi,
Undan ko'p oshinolarga sadoqat ham vafo keldi.
Vafodorlik bilan kechdi oning umri vale, evoh,
Nechuk berahm taqdir bu — umrkim bevafo keldi.⁶

She'rda shoirning ruhiy holati har bir qatordagi so'z va fikrda namoyon bo'ladi. Yuqoridagi misralardagi "shum sado", "nido", "judo", "motamsaro", "berahm", "beshafqat" kabi so'z va birikmalarning qo'llanilishi ham **ruhiy holatning** turli ko'rinishlarini ifodalab turibdi.

⁴ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 2- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.168.

⁵ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунуну-л-балог'а. – Тошкент: Ҳазина, 1996. – Б.19.

⁶ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 2- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.168.

Shoirning “Onaizor” nomli dostonida urush mavzusi, urushning oqibatlarini, turmush o’rtog’i va uch pahlavon o’g’lini jangga yuborgan va ulardan “qora xat” olgan mushtipar onaizor timsoli tasvirlangan. Sevikli yori, oilasining posboni, farzandlarining mehribon otasi bo’lgan turmush o’rtog’idan kelgan shum xabar ayolni qalbini larzaga soladi. Bu she’rd “lirik qahramon” – zamon – shum taqdir” o’rtasidagi **ziddiyatli tasvir** ifodalariga ham duch kelamiz;

Birdan bosib keldi g’am degan vabo –

Xat oldi “Eringiz qahramonlarcha...”

Boshiga ulkan tog’ quladi go’yo,

Bir o’q ochib ketdi ko’ksidan darcha.

O’t ichida qoldi jonu jahoni,

Ko’z yoshlari oqdi misli shalola.⁷

Shoirning “Tirik qurbonlar” dostoni so’ngida **makon va zamon bilan bog’liq hodisalarni** bog’lab turuvchi shunday ta’sirli satrlar bor. “Badiiy zamon va badiiy makon badiiy obrazning muhim tavsifi bo’lib, badiiy voqelikni yaxlit qabul qilishni ta’minlaydi va asar kompozitsiyasini tashkillaydi. So’z san’ati dinamik (plastik san’at turlaridan farqi o’laroq) o’sib boruvchi, vaqtinchalik san’at guruhiga mansubdir. Biroq adabiy-badiiy obraz matndagi voqealarning ketma-ketligiga qarab, shaklan zamon bo’ylab kengayib boradi. O’z mazmuniga ko’ra olamning makoniy-zamoniylar kartinasi uning ramziy-mafkuraviy, qadriyatga oid yo’nalishda ifodalaydi”⁸. She’rda, o’z jasorati bilan bu dunyoni tark etgan shahid insonlar xotirasiga tashkil etilgan Shuhrat uyi haqida gap ketadi. U erda o’tgan insonlarning nomini abadiylashtirish maqsadida ismi-shariflari taxtaga o’yib yozilgani, hamisha e’zozda ekanligi bayon qilinadi. O’tgan insonlarni xotirlash haqida gap ketyaptimi, demak, voqealar bugungi kunda sodir bo’lmoqda:

Muqaddas sajdagoh bu Shuhrat uyi.

Go’yo shahidlarning ramziy mozori.

Ismi-shariflari yozilgan o’yib,

E’zozda turibdi nomai kori.⁹

Habib Sa’dulla lirik obraz yaratishda o’ziga xos usul hamda vositalardan keng va o’rinli foydalanadi. U yaratgan lirik obrazlarning xarakter chizgilari she’riyat muxlislarining ongi va shuuriga oson etib boradi va tez esda qoladi.

⁷ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.157.

⁸ Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина. — Москва: НПКи Интелвак, 2001. — Стб.1174.

⁹ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.203.

NATIJALAR

Adabiyotning eng buyuk va muqaddas burchi odamga uning kimligini ko'rsatishdir. Badiiy adabiyotda, eng avvalo, inson va uning taqdiri, ruhiy olami va kechinmalari tasvirlanadi. Lirikani fikr va his-tuyg'ular sintezining teranlashgan formasi, deyishadi. Bu hol uning yakka, yolg'iz mohiyatlaridan teran falsafiy umunlashmalarga kelishida, bugungi voqeligimizdan kelajakka daxldor belgilarni ko'rishi va topa bilishida, ularni umumlashtira olishida namoyon bo'ladi. U, birinchi navbatda, insonning ma'naviy-ma'rifiy tasavvurlarini shakllantiradi. Insonning faqat aqliy quvvatigagina emas, uning ruhiy holatiga ham ta'sir etadi. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglayanotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda, obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi.

Shoir Habib Sa'dullaning "Bizning Namangonda" nomli she'rida "lirik qahramon" shoirning o'zi. U ona yurti Namangan ta'rifini bahorning kirib kelishi, u o'z xushbo'y iforini shom va tong pallasidagi yurt uzra taratib turishi bilan bog'laydi. Shoir ona yurt go'zalligi ta'rifini berib o'tirmaydi. Balki o'z sepini yoyib kelgan kelinga qiyoslangan bahorning Namanganga tashrifining o'zidayoq bu yurt go'zalligi ko'z oldimizda gavdalanadi. Shoirning estetik zavqi kitobxon ko'ngliga ko'chadi. Ijodkordagi ona yurtga bo'lgan muhabbat, g'urur his-tuyg'ulari bahor tashrifi orqali amalga oshiriladi;

Sepin yoymish kelib bul kun
Bahor bizning Namangonda,
Bahor atrin ufurgay shom,
Nahor bizning Namangonda.¹⁰

Shoirning "Sog'inib keldim" she'rida yurtidan uzoqda bo'lgan va hamyurtlar mehriga tashna bo'lgan "lirik qahramon"ning holatini kuzatamiz. Namangan shahri azal-azaldan gullar shahri ekanligini "Gul shahrim, Gulzor shahrim, Gilamday guldor shahrim" misralari orqali ifodalaydi. She'rda ko'chalari, hovlilari pokiza, qizlari saranjom-sarishta, yigitlari filqomat ekanligini ifodalaydi:

Har yigiti filqomat,
Qizi farishta shahrim.
Onajon – Namangonim
Jonajon – Namanganim.¹¹

¹⁰ Хабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 2- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.10.

¹¹ Хабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.37.

“Lirik qahramon” ona shahrining hamma joyini sogʻinadi. Yashil oʻtloqlarni, goʻzal qizlarini, mirishkor qoʻllarini va vaslgoh tunlarini koʻrish uchun sogʻinib keladi. Shaharga qarata:

Kel, qoʻlingni ber, shahrim,
U mirishkor qoʻlingdan
Sadoqatim ramzi deb,
Bir shirin boʻsa olay¹²

Shoir ona shahrini oʻzining eng yaqin doʻsti, sirdoshi, yaqin kishisi sifatida qadrlaydi. Uning mirishkor qoʻlini eʼzozlab, “bir shirin boʻsa olay”, deya faxrlanadi. Bu boʻsaning harorati esa uni shijoatga chorlaydi:

Shu boʻsa harorating sepib yurgan yoʻlida
Toshlarda gul undirib,
Chin gulkor boʻlib qolay,
Onajon Namanganim.¹³

Habib Saʼdullaning “Namangon qizlari” nomli sheʼrida Namanganning odobli, xayoli, goʻzal qizlari haqida chiroyli taʼrif-tavsiflar keltiriladi. Shoir sheʼrni “Gulshan Namangon koʻksida” deya Namanganni gullar shahri ekanligini taʼriflashdan, baho berishdan boshlaydi:

Gulshan Namangon koʻksida
Raʼno Namangon qizlari,
Odob-hayoli dilnavoz
Zebo Namangon qizlari.¹⁴

Bu gulshan diyor koʻksida esa dunyodagi eng goʻzal qizlar yashaydi. Bu goʻzallarni shoir “Raʼno Namangon qizlari”, deya taʼriflaydi. Mana shu zebo Namangan qizlari keyingi misralarda shoir taʼriflagan “gul qoʻllari”da gul undirganligi, shu sababki Namangan shahrini gullarga burkanganligi va hatto oʻzining bu sanʼatiga oʻzlariga ham “shaydo” ekanligi ifodalanadi:

Gul qoʻllarida gul unib,
Gullarga burkab shahrini,
Oʻz sanʼatiga oʻzlari
Shaydo Namangon qizlari.

Shoir oʻz shahriga bir nazar tashlaydi va undagi “latofat sirlari”ni seza boshlaydi. Shahar goʻzalligining sohibi ham mana shu dono Namangon qizlari ekanligi quvontiradi:

Boqqanda shahrim koʻrkiga

¹² Хабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.38.

¹³ Хабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.38.

¹⁴ Хабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 2- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.45.

Sezgum latofat sirlarin,
Siz bu go‘zallik sohibi
Dono Namangon qizlari.

Namanganlik qizlarning atlas ko‘ylak kiyib, lov-lov yonib yurishlari, misoli tovu yanglig‘ tovlanishlari va gullarga burkangan bog‘larda sayr qilganingizda esa barno qizlarni uchratishingiz mumkinligi haqida go‘zal ifodalar keltiriladi:

Atlas kiyib, lov-lov yonib,
Misli tovu ming tovlanib,
Sayr etsangiz gulbog‘ aro
Barno Namangon qizlari –

Shoirning “Etmish” nomli g‘azalida yana Namangon haqida gap ketadi.

Shoirning fikricha, gul shahri Namangonni tabiat oftob yurti sifatida ham yaratgan. Mana shu makon ichra esa bir go‘zalni ham “mohitob” sifatida yaratdi:

Tabiat gul Namangonni
Makoni oftob etmish,
Makoni oftob ichra
Seni bir mohitob etmish.¹⁵

Mana shu quyoshli yurtdagi go‘zal “mohtob”ning ishq oshiq ko‘nglida oshiyon tutdiki, buning oqibatida oshiqning tanasi oromini yo‘qotdi va ko‘zidan uyqu ham qochdi:

Seningdek mohitob ishq,
Dilimni oshyon aylab,
Tanim oromdan ayrilmish,
Ko‘zim ham tarki xob etmish.

Habib Sa’dulla she’riyati mavzu jihatdan rang-baranglik kasb etadi. Shoir ijtimoiy hayotga, insonlarga bo‘lgan munosabatini turli mavzulardagi she’rlari orqali ifodalaydi. Uning Vatan, ona, sog‘inch, ayol, tabiat, inson, muhabbat mavzusidagi she’rlarini birlashtirib turuvchi bir nuqta mavjud.

Habib Sa’dulla ijodi o‘zbek zamonaviy she’riyatida o‘ziga xos ovoz, o‘ziga xos badiiy olamdirdi. Uning she’rlarida inson va tabiat, Vatan va muhabbat, sog‘inch va sadoqat kabi abadiy mavzular chuqur falsafiy va lirik ruhda talqin etiladi. Shoir uchun tabiat — faqat manzara emas, balki Vatanning bir bo‘lagi, inson ruhiyatining timsoli, hayotiy kechinmalarning estetik ifodasi hisoblanadi. “Yomg‘irdan so‘ng” she’rida tabiatning tiniqligi orqali hayot go‘zalligi, yangilanish ruhi, inson qalbining zavq-shavqi ifodalanadi.

¹⁵ Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар. 2- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.93.

Shoirning ayol obraziga bag‘ishlangan “Ayollar” she’rida esa ayol siymosi muhabbat, visol, vatan va e’tiqod ramzi sifatida ulug‘lanadi. Ayolga bo‘lgan chuqur hurmat va ehtirom lirik kechinmalar orqali badiiy kuch bilan ifodalanadi.

Habib Sa’dullaning “Nido keldi” marsiyasida esa insoniy sadoqat, do‘stlik, ayriliq fojiasi, umrning bevafo ekani haqidagi dardli kechinmalar yurakdan chiqqan so‘zlar orqali tasvirlanadi. Marsiyada shoirning og‘riqli his-tuyg‘ulari, do‘stga sadoqat va taqdirga isyon ohanglari seziladi.

“Onaizor” va “Tirik qurbonlar” kabi dostonlarda urush, insoniy fojia, fidoyilik, vatanparvarlik g‘oyalari yuksak drammatizmida ochilgan. Shoir o‘tganlarni yod etish, ularning jasoratini e’zozlash orqali bugungi tinchlikning qadriga yetishga undaydi.

Habib Sa’dullaning “Bizning Namangonda”, “Sog‘inib keldim”, “Namangon qizlari”, “Etmish” kabi she’rlarida esa lirik qahramonning ona yurti Namanganga, uning odamlari, qizlari, tabiati va hayot tarziga bo‘lgan cheksiz muhabbat va faxr tuyg‘usi ifoda topgan. U Namanganni “gullar shahri”, “oftob yurti” deb atab, bu makon orqali Vatanni, xalqni, millatni ulug‘laydi.

XULOSA

Shoirning butun ijodiy dunyosini birlashtirib turuvchi asosiy g‘oya — inson, uning ruhiy olami va Vatanga muhabbatdir. Habib Sa’dulla she’riyati o‘quvchini ezgulikka, go‘zallikka, sadoqat va vatanparvarlikka chorlaydi. Uning badiiy uslubi samimiy, obrazlari hayotiy, poetik tili esa nafis va obrazlilik bilan ajralib turadi. Shu bois Habib Sa’dulla ijodi o‘zbek lirikasida inson qalbining go‘zalligini, hayotga muhabbatni, Vatanga sadoqatni kuylovchi yorqin badiiy hodisa sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. MADALIYEVA, Z. (2021). WILLIAM FIERMANS SCIENTIFIC VIEWS ON TWENTIETH-CENTURY UZBEK LITERATURE. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 1335-1338.
2. Ermanbetova, S. (2024). POETIC SYNTAX IN THE POETRY OF HABIB SADULLA. *Академические исследования в современной науке*, 3(40), 190-194.
3. Эрманбетова, Ш. Б. (2024). ХАБИБ САЪДУЛЛА ШЕЪРИЯТИДА ПОЭТИК СИНТАКСИС. *GOLDEN BRAIN*, 2(16), 19-25.
4. Iskandarova, M., & Usmonov, X. (2024). CLINICAL-DIAGNOSTIC FEATURES AND COMPLEXITY OF TREATMENT IN THE COMORBID COURSE OF PULMONARY TUBERCULOSIS AND MALIGNANT TUMORS. *Академические исследования в современной науке*, 3(33), 55-57.
5. Ermanbetova, S. B. (2020). WHEN I CAME OUT OF THE STREET. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(10), 314-318.

6. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM). *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 3(9), 18-20.
7. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(11), 79-80.
8. Xabibillayev, N. (2024). HOZIRGI O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISH MASALASI (1-qism). *Молодые ученые*, 2(22), 17-22.
9. Xabibillayev, N. (2024). AZIM HOJIYEVNING MORFEMA BORASIDAGI QARASHLARI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(8), 21-26.
10. Habibullayev, N. N. O. G. L., & QOZOQ, V. O. Z. T. M. (2023). SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI.
11. Xabibillayev, N. (2024). Mumtoz Adabiyotni Targ 'Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (—Lison Ut-Tayrl Ning Moslashtirilgan Matni Misolida). *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 16, 65-71.
12. XASHIMOVA, X. (2025). TERMINOLOGIK BAZANING YAGONA ELEKTRON PLATFORMASINI YARATISH ISTIQBOLLARI: TEXNIK TERMINOLOGIYANI STANDARTLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 232-237.
13. Khashimova, K., & Kuziev, U. (2020). Participation of languages of other systems in the formation of the uzbek literary language. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*, 22-25.
14. Khashimova, K. D. (2021). LITERARY LANGUAGE AND SPEECH NORMS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 27-29.
15. Djurakhanovna, K. K. (2025). PSYCHOLINGUISTICS: TEXT, SPEECH, AND THE HUMAN FACTOR. *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*, 1(6), 219-223.
16. Хашимова, Х., & Пазлитдинова, Н. (2024). Роль терминологии в развитии лексического строя языка. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(2/S), 112-116.
17. Djuraxanovna, X. X. (2024). MUSTAQILLIK TERMINOLOGIYASINING AYRIM QIRRALARI. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(7), 67-74.
18. G'anijonovich, T. R. (2025, October). MODAL SO 'ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 6, pp. 102-105).

19. Tojimatov, R. (2025). NOUNS CONNECTED WITH THE NAMES OF HISTORICAL PERSONS IN THE WORKS OF SAID AHMAD HAJVI. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 418-420.
20. Tojimatov, R. G. A. (2025). SAID AHMAD HAJVIY ASARLARIDA KINOYALI HAJVNING LISONIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(5), 461-467.
21. Tojimatov, R. G. A. (2023). MUHAMMAD YUSUF IJODIDA QO‘LLANILGAN POETONIMLARNING LINGVOPOETIK, JIHATDAN TAHLIL QILISH TAMOIYILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 174-180.
22. Mengliev, D., Nabiyeva, D., Abdurakhmonov, A., Makhmudov, K., Nuritdinov, A., & Otemisov, A. (2025, June). Educational Text Analysis in Uzbek: Developing an NER Algorithm for Academic and Pedagogical Content. In *2025 IEEE 26th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM)* (pp. 2100-2103). IEEE.
23. Nuritdinov, A. (2025). MATNLARNI LINGVOSTATISTIK TAHLIL QILISHDA KORPUS USULLARIDAN FOYDALANISH. *Молодые ученые*, 3(19), 93-97.
24. Nuritdinov, A. (2025). KONKORDANS–LINGVISTIK TAHLIL VOSITASI SIFATIDA. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(13), 173-178.
25. Nuritdinov, A. (2025). Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI JURNALI*, 3(5).
26. Nuritdinov, A. (2024). JADID DAVRI ADABIY MUHITIGA DOIR ASARLARDAN KORPUSDA FOYDALANISH. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
27. Nuritdinov, A. (2022). O ‘ZBEK TILI KORPUSI UCHUN ABDURAUF FITRATNING LINGVISTIK ASARLARINI MANBA SIFATIDA OLINISHI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
28. Nuritdinov, A. S. O. G. L. (2022). O‘zbek tili milliy korpusi uchun jadid tilshunoslarining lingvistik asarlarini manba sifatida olinishi. *Science and Education*, 3(4), 2048-2057.